



## EPITETLAR VA ULARNING MASNAVIY BADIYYATIDAGI O‘RNI

**Sevara Baratova Musoxonovna,**  
*O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
Instituti kichik ilmiy xodimi,  
Mustaqil tadqiqotchi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207225>

**Annotatsiya:** Maqolada “Sabot ul ojizin”, “Rohati dil” masnaviy matnlarida uchraydigan epitetlar lingvopoetik tahlilga tortilgan. Doimiy va individual sifatlashlar solishtirilib, yozuvchi mahorati ochib berilgan. Epitetlar metafora yaratishga xizmat qilishi dalillangan.

**Kalit so‘zlar:** Epitet (sifatlash), metafora, ko‘chimli epitet, leksema, sifatlovchi-aniqlovchi.

Lingvopoetikada epitetlarning alohida o‘rni borligi allaqachonlar e’tirof etilgan. Zero, epitet og‘zaki va yozma nutqda, ayniqsa, poetik nutqda muhim tasviriy vositalardan hisoblanadi. Ilmi bade’da epitetlar “sifatlash” deb tilga olinadi. Shuni e’tiborda tutish lozimki, estetikada ham, lingvistikada ham epitetlarga alohida hodisa sifatida qaraladi [1:37,39. 2:25,26. 3:79,81. 4:26,27]. Epitetlar umumfilologik masala bo‘lganidan unga tilshunoslar ham, adabiyotshunoslar ham murojaat qilishadi. Tilshunoslar unga ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltiruvchi vosita deb qarashsalar, adabiyotshunoslar timsollarning mohiyatini ochuvchi va badiiylilikni ta’minlovchi unsur, ya’ni badiiy-estetik xususiyat kasb etuvchi vosita – badiiy san’at sifatida qaraydilar. Aslini olganda, ularning fikrlarida yakdillik bor. Epitetni ko‘chim turi deb hisoblamagan A.A.Potebnya uni ko‘chimga nisbatan kengroq hodisa deb hisoblagan va epitet ko‘chimlar orqali ifodalanishi ham, ifodalanmasligi ham mumkin, degan farazni ilgari surgan. Darhaqiqat, epitet ham aslida metafora yaratishga xizmat qiladi. Ular an’anaviy bo‘ladimi yoki xususiy muallif topilmasi bo‘ladimi, baribir, baho munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “Aziz jisingga ne’mat xora bo‘lg‘ay, Qaro yer ostida bechora bo‘lg‘ay”[8:36] baytidagi “aziz” hamda “qora” epitetlari an’anaviy epitetlar bo‘lsa, “Yuz alvon birla so‘z ayg‘on suchuk til”[8:76], “Tan-u teringda totliq jon yaratdim”[8:37], “Ko‘zing yoshi qani, ey mag‘zi yo‘q bosh”[8:38] misralaridagi epitetlarni muallif topilmalari tarzida anglash mumkin. Zero, muallif topilmalari sanalgan epitetlar faol leksikada nisbatan kam istifoda qilinadi yoxud mutlaq ishlatilmaydi.

O‘zbek tilida sifatlar, sifatdoshlar, otlar, ravishlar, olmoshlar bilan juda ko‘p epitet birikmalar hosil qilish mumkin, ular xuddi aniqlovchi-aniqlanmish (sifatlovchi-sifatlanmish) sintaktik munosabat doirasida yuzaga keladi. Tilshunos A.T Rubaylo



epitetlarning metafora va metonimiyaga juda yaqin bo‘lgan bir turi ekanligini ta’kidlab, uni badiiy –aniqlovchi deb ataganida to‘la haq edi [6:46]. Negaki, epitetlar ko‘chimli bo‘ladimi, ko‘chimsiz bo‘ladimi, emotsionallikni yuzaga keltirish xususiyatiga ega bo‘ladi. Bunda emotsionallikning kuchli yoki kuchsiz darajada bo‘lishida farq bor, xolos. Bularni R.Qo‘ng‘urov o‘z vaqtida poetik epitetlar (sifatlashlar) termini bilan atashni taklif qilgan [7:27].

Ayniqsa, so‘fiyona adabiyotda epitetlar ijobiy yoki salbiy ta’sirchan ma’no hosil qilishda alohida ahamiyatga ega. Bu epitetlar metafora hosil qilishda o‘z ta’siri va ahamiyatini saqlab qoladi.

Epitetlarning poetik nutqdagi vazifasi nutqning aniqligi, rang-barangligini ta’minlashdan iborat bo‘lar ekan, odatda narsa-hodisaning biror xususiyatini, belgisini ajratib ko‘rsatish maqsadida narsa va hodisa nomini bildiruvchi so‘zdan oldin qo‘llanadi. Ayrim epitetlar kishiga oldindan ma’lum bo‘lganidan, unda muayyan hayajonni uyg‘otmasligi ham mumkin. Masalan, Uning qora ko‘zlari, oppoq yuzlari, kelishgan qomati e’tiborni tortar edi jumlasida kelgan qora, oppoq, kelishgan epitetlari o‘quvchiga oldindan ma’lum bo‘lganligi, nutqda ko‘p ishlatilganidan ta’sirchanlik darajasini ancha yo‘qotgan bo‘ladi. Biroq doimiy epitetlaridan farqli ravishda muallifning topilmasiga aylangan epitetlar o‘quvchida favqulodda emotsiya uyg‘otadi.

So‘fi Olloyor, Huvaydo, Nishotylarning kitoblarida epitetlarning turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Bu epitetlarning ayrim turlari ko‘chimli epitetlar bo‘lsa, ayrimlari ko‘chimsiz epitetlar hisoblanadi:

Xususan, yo‘lda bir vahshatli uy bor,  
Kirar yolg‘iz boshing ul uyga nochor. [8:36]

Keltirilgan baytga e’tibor qilinsa, “vahshatli” epiteti ko‘chimli bo‘lsa, “yolg‘iz” epitetini ko‘chimsiz, deb qabul qilish mumkin. Baytdagi vahshatli epiteti esa, doimiy bo‘lmaganidan favqulodda emotsiya uyg‘otadi. Qolaversa, “vahshatli uy” birikmasidagi ko‘chim, ruhoniylar tushuncha o‘quvchining tuyg‘ulariga ta’sir etib, uni larzaga soladi, o‘zi bilmagan holda unda o‘z amallarining savobli yoki savobsiz ekanligidan qo‘rquv uyg‘otadi. Ta’sirchanlik “yolg‘iz bosh” birikmasidagi epitetdan bu darajada kuchli bo‘lmaydi.

Doimiy sifatlashlar nutq sohibi tomonidan oldindan tanish va nutqda ishlatilib kelingan bo‘ladi. Masalan, “gunohkor banda”, “dahshatli kun”, “badnafs odam”, “savobsiz ish”, “savobli amal” kabi birikmalardagi doimiy epitetlarning ta’sirchanlik darajasi obrazli epitetlardagi singari yuqori darajada bo‘la olmaydi. Obrazli



epitetlarda belgi-xususiyatlar ajratib ko‘rsatiladi, poetik nutq ta’sirchanligini jozibador chiqishini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, ushbu baytda ishtirok etgan doimiy epitetlar ko‘chim hosil qilib, doimiy epitet doirasida obrazli nutq hosil qilayotganligini sezish qiyin emas:

Bahoyimdek ishi ichmak, yemakdur,  
Quruq til birla “ummatmiz” demakdur. [8:32]

Yoki:

O’shal sultonki do‘iyan ilalloh  
G‘arib ummat uchun dog‘ erdi, valloh. [8:32]

Doimiy sifatlashlar poetik nutqda jozibadorlik, emotsionallik mutlaqo ta’minlamaydi, deb xulosa chiqarmaslik kerak. Ular ham o‘rni bilan obrazli nutq singari poetik nutqqa oroyish beradi. Masalan, So‘fi Olloyor kitobida xulqi xush xotinlar va xulqi ba’d ayollar haqida so‘z borganida, muallif quyidagi hikmatni havola qiladi:

Yomon xotun shayotin qamchisidur,  
Qo‘ling bog‘lag‘uvchi arg‘amchisidur. [8:61]

Baytda doimiy epitet bo‘lgan “yomon” so‘zi ishtirok etgan. Bu so‘z “yomon fe’l”, “yomon qiliq”, “yomon ish” singari birikmalarda ishtirok etsa, u qadar jozibadorlik hosil qilmasligi mumkin. Biroq o‘nga yaqin baytda yaxshi xotin bilan yomon xotin taqqoslanar ekan, ayni shu baytda “shayton qamchisi”, “shum diydor” singari birikmalar, “shum”, “ziyon” singari salbiy ottenka yuklovchi birikma va so‘zlar kelganidan, “yomon” doimiy epiteti muntazam qo‘llanadigan sifatlash bo‘lsa ham, bayt mazmuniga alohida ta’sirchanlik yuklagan va “yomon” epitetining ta’sir quvvatini ikki karra oshirganligini dalillaydi:

Obrazli epitetlar esa nutqda qo‘llanishi bilan unga alohida emotsionallik, jozibadorlik beradi. Favqulodda ijobiy yoki salbiy emotsiyani yuzaga keltiradi. Ushbu metaforik birikmada qo‘llanilgan “nozanin gul” bitishuvida “yaxshi xotin” ma’nosi mujassam. Undagi “gul” metaforasining sifatini namoyon etuvchi “nozanin” so‘zi faqat poetik nutqning obrazlilikni hosil qiluvchi, ijobiy emotsiyani yuzaga keltiruvchi leksema. Matndagi boshqa leksemalarga ham ijobiylik baxsh etib, nutqda betakror ta’sirchanlikni namoyon qilishga xizmat qilmoqda:

Ilikka tushsa bunday nozanin gul,

Degil, bu sandadur bo‘sanda, man qul. [8:60] Unday xotin oxirat uyining  
ozig‘i, inoyat gulshanining yoqimli shamolidir [8:178].



“Sabot ul-ojizin” matnida nido san’ati nisbatan ko‘p qo‘llangan. Ushbu undalmalarning deyarli barchasi metaforik usulda ifodalangan. Masalan, “ey neku zot” birikmasidagi “neku” so‘zi lug‘atda “yaxshi” ma’nosida, “zot” “inson” ma’nosida keladi [9:453]. Agar undalma shu so‘zlar orqali berilganda ta’sirchanlik yuqori darajada bo‘lmasligi mumkin edi. Shoir birikmadagi har ikki so‘zni o‘zlashma leksikada havola qilishi natijasida doimiy epitet obrazli epitetga aylanmoqda. Boshqa o‘rinda kelgan “mag‘zi yo‘q bosh” epitetli metafora esa salbiy ma’no tashiydi. Uni “miyasi aynigan kimsa” tarzida berilsa, ta’sirchanlik yuqori bo‘la olmaydi. Xalq tili imkoniyatlaridan foydalangan holda, ushbu metaforani hosil qilish baytdagi emotsiyani mumkin qadar yuqori darajada chiqishiga sabab bo‘lgan.

Aksariyat epitetlar zidlik ifodalovchi konstruktsiyalar qurshovida keladi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, epitetlarning aksariyati sifat so‘z turkumiga tegishli so‘zlar orqali beriladi. Biroq epitetlarning yuzaga kelishi shu turkumdagi so‘zlar bilangina kifoyalaniq qolmaydi. Ot so‘z turkumining belgi ifodalashiga ko‘ra hosil qilingan epitetli birikmalar ham so‘fiyona she’riyatda ko‘p uchraydi. Hozirgi zamon lirik va epik she’riyatida ot turkumidagi leksemalar epitet vazifasida aksariyat sifatga ko‘chgan holda “kumush qish”, “oltin kuz”, “zumrad ko‘klam”, “firuza ko‘k” “barqut gilam” singari birikmalarda qo‘llangan bo‘lsa, so‘fiyona asarlarda “bid’at jamoli”, “sunnat jamoli”, “dinning kamoli” tarzidagi epitetlar qaratqichli birikma shaklida keladi.

“Sabot ul-ojizin”da epitetlar forsiy izofalar qurshovida kelgani kuzatiladi. Masalan, “mehri ag‘yor”, “mag‘zi dil”, “amloki Rab”, “duri rahmat”, “biyoboni balo”, “daryoyi rahmat”, “donoyi asror”, “sultoni Vahhob”, “jovid lutf”, “nasimi ma’rifat”, “rizoyi Haq”, “ka’bayi maqsud”, “lutfi Hay”, “charog‘i ilm”, “ahli rizo”, “hamri g‘aflat”, “bihishti ma’rifat”, “shohi asdaq”, “ro‘zi qiyomat”, “ahli toat”. “saroyi oxirat”, “osomi kaboir” singari izofaviy birikmalarning ichki ma’no tovlanishlari ularni epitetning alohida bir ko‘rinishi deb baholashga asos bo‘ladi. Epitetlarning yana bir turida sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelib, izofaviy birlik yoki sifatlanmish+sifatlovchi (gap konstruktsiyasida) birikuvini hosil qiluvchi dastlabki leksik birlik, sifatlovchilik vazifasidan yoki izofaviy birlikning birinchi qismi o‘rnidan chiqib, kesimlik mavqeyini egallaydi va o‘ziga xos epitetlarni yuzaga keltiradi. Masalan:

Muhannasmisan, er, bolig‘misan, yosh,  
Yuzing qattig‘, tiling achchig‘, diling tosh. [8:35]



So‘fi Olloyor “Sabot ul-ojizin”ning bir qator o‘rinlarida epitetlarni shu tariqa kesimga – fikr tashuvchi bo‘lakka chiqarish bilan poetik nutqning ta’sirchanligini ta’minlashga, nutqning kishilarga oson va jozibador qilib tushuntirishga erisha olgan.

Sifatlashlar “Rohati dil” dostonida ham forziy izofa shaklida uchraydi:

Xudovando manga bu eshikni oj,

Ko‘ray emdi jamoli Shohi me’roj. [5:36].

Epitetlar poetik nutqning turli o‘rinlarida kelib, matnning ta’sirchan, jozibador bo‘lishini ta’minlab, baytlarning fasohatini kuchaytirib beradi. Poetik nutqni epitetlarsiz tasavvur qilish qiyin, epitet ishlatilgan har qanday nutqda ritmika – ohangdorlik yuzaga kelib, ular qalamkash mahoratini ko‘rsatishda muhim unsur darajasida xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. –Б.453.
2. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б. 26-27.
3. Мукарамов М. Ўзбек тилида сифатлаш // Ўзбек тили ва адабиёти. № 6. – Тошкент: 1973. –Б. 37-39.
4. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Тошкент: Фан, 1977. –Б. 27.
5. Равойихур Райҳон [Матн]. Рашид Зоҳид. – Тошкент: Sharq, 2018, –В. 178.
6. Рубайло А.Т. Художественные средства языка. –М.: Наука, 1961. –С. 46.
7. Хўжаева Д. Эпитет ва уларнинг турлари // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 5. – Тошкент: 1995 –Б. 25-26.
8. Хўжаназар Хувайдо. Роҳати дил. А.Қодирий ном, халқ нашр, 1994. –Б. 36.
9. Йулдашев Б. Стилистический анализ художественной прозы. – Тошкент: Фан, 1989. –С. 79-81.